

TARJIMANING LINGVAMADANIY MUAMMOLARI

Andijon davlat Chet tillari Instituti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti 401-guruh talabasi

Turajonova Gulnoza Sardorbek qizi

Supervisor: PhD Egamberdiyeva I.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimada ko'p holarlarda uchraydigan lingvamadaniy muammolar yoritilgan. Har bir til o'ziga xos mentalitet, madaniy o'ziga xoslik va keng tarixga va turli taraqqiyotga ega bo'lganligi tufayli ham tarjimonlar ko'plab holatlarda til va madaniyatlararo xilma xillik va tafovutlarga duch kelishda. Maqolada lingvamadaniy muammolarning asosiy turlari va tarjima qilish jaroyonida uning ahamiyati va bunday muammolarni hal qilishning bir necha usullari misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvamadaniy, tarjima, idiomma, tafovut, pragmatik tafovut , yechimlari.

Tarjima madaniyat va tilni o'zaro hamjihatlikda yetkazish vositasidir. Til madaniyatni ko'rsatadigan asosiy ko'zgu bo'lib undagi har bir so'z , jumla ibora orqali malum bir xalqning qadriyati madaniyati yashiringan boladi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda, tarjimonlardan faqat grammatik bilimlarnigina emas, shuningdek madaniyatlararo o'xshashlik kompetensiyaga ham alohida e'tibor qaratish ularni chuqurroq o'rganish talab qilinadi. Lingvamadaniy muammolar ko'pgina holatlarda so'zma so'z tarjima qilish orqali yoki kontestda to'g'ri xolda tarjima qilinmagan ibora yoki noto'g'ri madaniy malumotlar tufayli paydo bo'ladi.

Lingvamadaniy tafovutlarning mohiyati.

Lingvamadaniy tafovut yani farqlar bu bir tilga xos bo'lgan madaniy tusunchaning yoki bir qancha tushunchalarning boshqa bir tilda bo'lmasligi yoki butunlay boshqa ibora va boshqa bir yo'l orqali konnotatsiyaga ega bo'lishi holatidir. Misol uchun:

Ingliz tilidagi "It's raining cats and dogs" iborasi o'zbek tiliga so'zma so'z holda tarjima qilinsa "Mushuklar va itlar yog'yapti" degan g'alati jumla paydo bo'ladi. Aslini olganda esa "Juda kuchli yomg'ir yog'yapti" manosi nazarda tutiladi. Yana bir misolda esa "Tuyaning dumi yerga tekganda" so'zi ingliz tiliga "When the pigs fly " shaklida tarjima qilinadi. Bu kabi idiomatik iboralar tarjima qilinganda madaniy kontekstni alohida inobatga olish kerak va agar ushbu jihatlar inobatga olinmasa, qabul qiluvchi auditoriya tomonidan noto'g'ri tushunilishi mumkin.

Konnotatsion tafovutlar. Konnotatsiya - bu so'zning qo'shimcha bir nechta ma'nosi borligi yani u uyg'otadigan hissiy yoki madaniy assotsiatsiyalar. Masalan bazi bir mamlakatlarda oq motam ramzi hisoblansa ingliz tilida poklik manosini anglatadi. Umuman olganda ranglar, kiyimlar va hayvonlar har bir jamiyatda turlicha tushuniladi va talqin qilinadi.

Milliy realiyalar va tarjimabop bo'lmagan so'zlar faqatgina bitta xalqqa va uning madaniyatiga mos bo'ladi , boshqa tillarda esa muqobil variantlarga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi ham mumkin. Masalan:mahalla ,navro'z, do'ppi-bu so'zlar ingliz tiliga tarjima qilishda qo'shimcha izoh talab qilinadi ("Mahalla" -a traditional neighborhood community) shaklida qo'llaniladi.

Tarjimon bu holatda so'zning vazifasi va ahamiyatini izohlab berishga majbur bo'ladi yani qabul qiluvchi shaxsga to'g'ri va tushunarli shaklida yetkazish uchun.

Pragmatik farqlar-tilning muayyan kontekstda ishlatilish usuli. Masalan, minnatdorchilik bildirish, salomlashish, uzr so'rash kabi usullar har xil madaniyatda turlicha ifodalanadi. Ingliz tilida "How are you" salomlashuv jarayonida ishlatilinsa o'zbek tilida sog'lig'ini so'rash nazarda tutiladi. Bu kabi muammolarning oldini olish uchun tarjimondan madaniyatlararo muloqot qoidalarini yaxshi bilish talab qilinadi.

Lingvamadaniy muammolar tarjima jarayoning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularni hal qilish maqsadida tarjimondan madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, kontekstga asoslanib tarjima qilish, realiyalarni izohlash, idiomatik iboralarga iloji boricha ekvivalent topishga harakat qilish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.

Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.

Nida, E. & Taber, C. (2003). *The Theory and Practice of Translation*. Brill.

Komissarov, V.N. (1999). *Theory of Translation*. Moscow: Higher School.

Saidova, M. (2022). *Tarjimashunoslik asoslari*. Toshkent: TDShI nashriyoti.